

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Kimyoviy xavfli obyektlarda favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etishga o‘rgatish bo‘yicha dasturiy ta‘minot yaratish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: - aholining barcha qatlamlarini, shu jumladan, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lgan aholi, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijroiya hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlari, xodimlari, ishchi va xizmatchilari hamda harbiy xizmatchilarni; - ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida band bo‘lmagan aholi, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslar hamda O‘zbekiston Respublikasiga tashrif buyurgan turistlarni yong‘in, texnogen, tabiiy, va ekologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar sodir bo‘lganda qanday harakat qilishga, moddiy va madaniy boyliklarni asrab qolishga o‘rgatiladi; - kimyoviy xavfli mahsulotlar ishlab chiqariladigan va saqlanadigan korxonalarda favqulodda vaziyatlarni oldini olish va ularni bartaraf etish, shuningdek, yong‘in xavfsizligini ta‘minlash, aholining huquqiy madaniyatini yanada oshirish, qutqaruv tadbirlarini mustaqil baholash va o‘rganish bo‘yicha ingliz, rus va o‘zbek tillarida ishlovchi dastur va mobil ilova yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimidagi tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Favqulodda vaziyatlar vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Favqulodda vaziyatlar vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.